

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

YOSHLARDA KITOBXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Saidmurotova Malohat Baxtiyorovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, professor (PhD).

e-mail: saidmurotovamalohar@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-6938-2890>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada shaxsda kitobxonlikka qiziqishni shakllantirish va uni barqaror o'qish ehtiyojiga aylantirishning psixologik mexanizmlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotning maqsadi kitobxonlik motivatsiyasini rivojlantirishda ichki motivatsiya, qiziqish, avtonomiya, kompetentlik hissi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, emotsional munosabat va metakognitiv o'zini boshqarish mexanizmlarining o'rnini aniqlash hamda ularni takomillashtirishning psixologik imkoniyatlarini tizimlashtirishdan iborat. Tadqiqot integrativ nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni mazmuniy tahlil qilish va umumlashtirish usullariga asoslandi. Mahalliy psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan bir qatorda o'qish motivatsiyasi, o'qishga jalb etilganlik, o'zini o'zi determinatsiya qilish, qiziqishning rivojlanishi va metakognitiv boshqaruvga oid xorijiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Tahlil natijasida kitobxonlikka barqaror qiziqish bir martalik tashqi rag'batdan ko'ra qiziqishning uyg'onishi, shaxsiy tanlov imkoniyati, muvaffaqiyat tajribasi, ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlash va o'qish faoliyatini mustaqil boshqarishning o'zaro uyg'unligiga bog'liqligi asoslandi. Kitobxonlik motivatsiyasini rivojlantirishning "qiziqishni uyg'otish – qiziqishni barqarorlashtirish – qadriyat sifatida ichkilashtirish – mustaqil kitobxonlik faoliyatiga o'tish" bosqichlari ajratildi.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, o'qish motivatsiyasi, qiziqish, ichki motivatsiya, psixologik mexanizm, avtonomiya, kompetentlik, o'zini o'zi boshqarish, metakognitsiya, o'qishga jalb etilganlik.

ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ ФОРМИРОВАНИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ КУЛЬТУРЫ У МОЛОДЁЖИ

Сайдмуратова Малахат Бахтияровна

Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни, профессор (PhD).

Аннотация.

В статье теоретически проанализированы психологические механизмы формирования у личности интереса к чтению и его трансформации в устойчивую потребность в чтении. Цель исследования заключается в определении роли внутренней мотивации, интереса, автономии, чувства компетентности, социальной поддержки, эмоционального отношения и метакогнитивной саморегуляции в развитии читательской мотивации, а также в систематизации психологических возможностей совершенствования данных механизмов. Исследование основано на методах интегративного теоретического анализа, сравнительного анализа, содержательного анализа научных источников и обобщения. Наряду с отечественной психолого-педагогической литературой проанализированы зарубежные исследования, посвящённые мотивации к чтению, вовлечённости в чтение, самодетерминации, развитию интереса и метакогнитивной регуляции. Результаты анализа показывают, что устойчивый интерес к чтению в большей степени зависит не от разового внешнего стимулирования, а от взаимосвязи пробуждения интереса, возможности личного выбора, опыта успеха, социально-эмоциональной поддержки и самостоятельного управления читательской деятельностью. Выделены следующие этапы развития читательской мотивации: «пробуждение интереса – стабилизация интереса – интернализация чтения как ценности – переход к самостоятельной читательской деятельности».

Ключевые слова: чтение, мотивация к чтению, интерес, внутренняя мотивация, психологический механизм, автономия, компетентность, саморегуляция, метакогниция, вовлечённость в чтение.

OPPORTUNITIES FOR IMPROVING THE PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING A READING CULTURE AMONG YOUNG PEOPLE

Saidmurotova Malohat Baxtiyorovna

Abu Rayhan Beruni Urgench State University, Professor (PhD).

Abstract.

This article provides a theoretical analysis of the psychological mechanisms involved in developing an individual's interest in reading and transforming it into a sustained need for reading. The study aims to determine the role of intrinsic motivation, interest, autonomy, perceived competence, social support, emotional engagement, and metacognitive self-regulation in the development of reading motivation, as well as to systematize the psychological possibilities for improving these mechanisms. The study is based on integrative theoretical analysis, comparative analysis, content analysis of scholarly sources, and generalization. Along with local psychological and pedagogical literature, international studies on reading motivation, reading engagement, self-determination, interest development, and metacognitive regulation were analyzed. The findings indicate that sustained interest in reading depends less on one-time external incentives and more on the interaction between the stimulation of interest, opportunities for personal choice, experiences of success, socio-emotional support, and independent regulation of reading activities. The following stages in the development of reading motivation were identified: "triggering interest – stabilizing interest – internalizing reading as a value – transitioning to independent reading activity."

Keywords: reading, reading motivation, interest, intrinsic motivation, psychological mechanism, autonomy, competence, self-regulation, metacognition, reading engagement.

Kirish. Kitobxonlik shaxsning bilim olish faoliyatigina emas, balki uning tafakkuri, emotsional dunyosi, tasavvuri, nutqi, o'zini va boshqa insonlarni anglash jarayonlariga ta'sir etuvchi murakkab psixologik faoliyatdir. Shu sababli kitobxonlikka qiziqtirish muammosini faqat kitoblar sonini ko'paytirish, kutubxonalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish yoki turli tanlov va tadbirlarni tashkil etish bilan cheklash yetarli emas. Shaxs nima sababdan kitobni o'z xohishi bilan qo'lga olishi, o'qishni davom ettirishi va mutolaani shaxsiy ehtiyoj darajasiga olib chiqishi psixologik mexanizmlar orqali izohlanishi lozim.

O'zbekistonda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. 2017-yildagi PQ-3271-son qaror kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha kompleks vazifalarni belgilagan. 2026-yil 15-yanvardagi PQ-9-son qaror esa 2026–2030-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish bo'yicha yangi chora-tadbirlarni belgiladi [1, 2].

Mahalliy psixologiya fanida qiziqish, ehtiyoj, motiv va motivatsiya shaxs faoliyatini harakatlantiruvchi muhim omillar sifatida o'rganilgan. E. G. G'oziyev shaxsning ehtiyojlari, qiziqishi va motivatsiyasini umumiy psixologik jarayonlar bilan bog'liq holda yoritadi [3]. F. I. Xaydarov va N. I. Xalilova shaxsning hissiy-irodaviy va motivatsion sohasini umumiy psixologiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida tavsiflaydi [4]. Z. T. Nishonovanning rivojlanish va pedagogik psixologiyaga oid darsligida ta'lim faoliyati, rivojlanish muhiti hamda yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurati ko'rsatilgan [5].

Kitobxonlik bo'yicha mahalliy ishlarda oila, maktab va kutubxona muhitining roli alohida qayd etiladi. S. A. Chiniyeva o'zbek oilalarida kitobxonlik vositasida o'smirlar ma'naviyatini shakllantirish masalasini tadqiq etgan [6]. O. Eshimbetov 5–7-sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda kitob tanlash, matn ustida ishlash, tahlil, taqriz, munozara va muntazam rag'batlantiruvchi strategiyalarni integratsiyalashni ko'rsatadi [7].

Xorijiy psixologik tadqiqotlarda kitobxonlikka qiziqish ko'p komponentli motivatsion hodisa sifatida talqin qilinadi. O'qish motivatsiyasi shaxsning o'qishga doir maqsadlari, qadriyatlar, ishonchlari va emotsional munosabatlarini qamrab oladi. O'qish motivatsiyasi bilan real o'qish faoliyatiga jalb etilganlik o'zaro bog'liq bo'lsa-da, ular aynan bir hodisa emas [12]. Shu nuqtayi nazardan kitobxonlikka qiziqishni shakllantirish ichki motivatsiya, situativ va individual qiziqish, kompetentlik hissi, ijtimoiy aloqadorlik hamda o'zini o'zi boshqarish jarayonlarini birgalikda ko'rib chiqishni talab etadi.

Psixologik nuqtayi nazardan qaralganda, kitobxonlikka qiziqtirish motivatsiya, emotsional holat, kognitiv ehtiyojlar, shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy ta'sir kabi omillarning o'zaro bog'liqligi orqali shakllanishini va bu jarayon o'z ichiga bir nechta bosqichli mexanizmlarni olishini ko'rsatadi. Ular quyidagilardan iborat: birinchidan, shaxsda ma'lumotga ega bo'lishga bo'lgan ichki ehtiyoj paydo bo'lishi; **ichki ehtiyoj** (psixologiya va pedagogikada) — insonning tashqi bosim, mukofot yoki majburiyatlarsiz, o'z xohishi, qiziqishi va ichki intilishi natijasida biror faoliyatni bajarish ehtiyoji. Bu tushuncha shaxs rivojlanishi va o'quv motivatsiyasida hal qiluvchi o'rin tutadi. Ikkinchidan, bu ehtiyoj bilan uyg'unlashadi (bu insonning yashashi, kamol topishi va faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan sharoit va vositalarga bo'lgan ichki muhtojlik hissidir. Ehtiyoj har qanday faoliyat va xulq-atvorni harakatga keltiruvchi **turtki (motiv)** va **manba** vazifasini o'taydi); uchinchidan esa, bu ehtiyojning ijtimoiy muhit, oila, maktab va ommaviy axborot vositalari orqali mustahkamlanishi yoki sustlashishi ilmiy metodikalar bilan yoritib berilgan [6].

Tadqiqotning maqsadi kitobxonlikka qiziqishni shakllantiruvchi asosiy psixologik mexanizmlarni aniqlash hamda ularni takomillashtirishning nazariy va amaliy imkoniyatlarini tizimlashtirishdan iborat.

MATERIALLAR VA METODLAR

Mazkur ish empirik eksperiment emas, balki integrativ nazariy-analitik tadqiqot hisoblanadi. Shu sababli tadqiqotda respondentlar soni, eksperimental va nazorat guruhlar yoki muallif tomonidan yangi olingan statistik

ma'lumotlar keltirilmaydi.

Tadqiqot materiallarini O'zbekistonda nashr etilgan umumiy, rivojlanish va pedagogik psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlar, kitobxonlik madaniyati bo'yicha mahalliy tadqiqotlar, shuningdek, xalqaro ilmiy adabiyotlarda reading motivation, intrinsic motivation, reading engagement, interest development, self-determination va metacognitive reading strategiyalariga bag'ishlangan ishlar tashkil etdi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, mazmuniy tahlil, ilmiy natijalarni tizimlashtirish va konseptual umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Xorijiy adabiyotlarni tanlashda, bir tomondan, motivatsiya va qiziqishning fundamental psixologik nazariyalari, ikkinchi tomondan, o'qish motivatsiyasi bo'yicha meta-tahlil va sharh tadqiqotlariga ustuvorlik berildi.

Mazkur metodologiya sistematik meta-tahlil o'tkazilganini anglatmaydi. Maqolaning vazifasi mavjud ilmiy natijalarni psixologik nuqtayi nazardan integratsiya qilish va O'zbekiston ta'lim-madaniy muhiti uchun amaliy jihatdan tizimlashtirishdan iborat.

NATIJALAR

Kitobxonlikka qiziqishning asosiy psixologik mexanizmlari

Nazariy tahlil kitobxonlikka qiziqishning bitta omil bilan emas, balki bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir necha psixologik mexanizm orqali shakllanishini ko'rsatadi. Ushbu mexanizmlar 1-jadvalda tizimlashtirildi.

1-jadval. Kitobxonlikka qiziqishni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlar

Psixologik mexanizm	Psixologik mazmuni	Kitobxonlikni rivojlantirish imkoniyati
Qiziqishni uyg'otish	Yangilik, shaxsiy ahamiyat va emotsional jozibadorlik dastlabki diqqatni faollashtiradi.	Yosh va individual qiziqishlarga mos kitoblar, muammoli savol, qiziqarli parcha va vizual taqdimot.
Ichki motivatsiya va avtonomiya	Shaxs o'qishni majburiyat emas, o'z tanlovi sifatida qabul qiladi.	Kitobni mustaqil tanlash, bir necha variant taklif qilish, o'qish maqsadini shaxsiylashtirish.
Kompetentlik hissi	"Men bu matnni tushuna olaman" degan ishonch faoliyatning davomiyligini qo'llab-quvvatlaydi.	Murakkablikni bosqichma-bosqich oshirish, aniq va qo'llab-quvvatlovchi fikr-mulohaza.
Ijtimoiy aloqadorlik	Ota-ona, o'qituvchi va tengdoshlarning namunasi hamda qo'llab-quvvatlashi o'qishning ijtimoiy qiymatini kuchaytiradi.	Oilaviy mutolaa, kitob klublari, tengdoshlar muhokamasi va kitob tavsiyasi.
Emotsional jalb etilish	Matn bilan ijobiy hissiy aloqa o'qishni yoqimli va mazmunli tajribaga aylantiradi.	Qahramonlarga hamdardlik, hayotiy vaziyat bilan bog'lash, erkin fikr bildirish.
Metakognitiv o'zini boshqarish	O'quvchi o'qish maqsadini belgilaydi, tushunishini nazorat qiladi va natijani baholaydi.	O'qish kundaligi, savol tuzish, qayta hikoya, xulosa va refleksiya.

Self-Determination Theoryga ko'ra, avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlarining qo'llab-quvvatlanishi ichki motivatsiyaning rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi [8]. Kitobxonlik jarayoniga tatbiq etilganda bu o'quvchiga ma'lum darajada tanlov berish, uning real muvaffaqiyatini ko'rsatish va o'qiganlarini boshqalar bilan muhokama qilish imkonini yaratish barqarorroq motivatsion asos hosil qilishini anglatadi.

Hidi va Renninger qiziqish rivojlanishini to'rt bosqichli jarayon sifatida izohlaydi: vaziyatli qiziqishning uyg'onishi, uning saqlanishi, individual qiziqishning paydo bo'lishi va rivojlangan individual qiziqish [9]. Kitobxonlik nuqtayi nazaridan bu bir marta qiziqarli kitob tavsiya etishning o'zi yetarli emasligini, dastlab paydo bo'lgan qiziqish muntazam ijobiy o'qish tajribasi orqali qo'llab-quvvatlanishi kerakligini ko'rsatadi.

Ichki va tashqi motivatsiya nisbatini takomillashtirish

Kitobxonlikni targ'ib qilishda sovrin, baho, reyting, sertifikat yoki tanlov kabi tashqi rag'batlantiruvchilar o'qishga kirishish uchun dastlabki stimullar bo'lishi mumkin. Biroq barqaror kitobxonlik uchun o'qishning shaxsiy ma'nosi va ichki qiymati shakllanishi muhim.

Schiefele va hammualliflarning tadqiqotlar sharhida ichki o'qish motivatsiyasining o'qish xulqi va kompetensiyasi bilan barqaror bog'liqligi, motivatsiyaning turli o'lchamlari esa bir xil natija bermasligi ko'rsatilgan [13]. Shuning uchun tashqi rag'batni mutlaqo rad etish emas, balki undan ichki motivatsiyaga o'tish vositasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Dastlab tanlov yoki mukofot orqali jalb qilingan o'quvchi keyinchalik o'zi yoqtirgan janrni aniqlashi, mustaqil kitob tanlashi va o'qishni tashqi mukofotsiz ham davom ettirishi kerak.

Kompetentlik hissi va "muvaffaqiyatli kitobxon" tajribasi

O'qish materiali o'quvchining mavjud imkoniyatiga nisbatan haddan tashqari murakkab bo'lsa, takroriy muvaffaqiyatsizlik uning kitobga emas, balki undan qochishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirishi mumkin. Shu

sababli kitobxonlikka qiziqtirishda matnning hajmi, tili va mazmun murakkabligini shaxsning yoshi va tayyorgarlik darajasiga moslashtirish muhim.

Guthrie va hamkorlarining o'qish motivatsiyasiga yo'naltirilgan tadqiqotlarida kompetentlikni qo'llab-quvvatlash, o'quvchiga mustaqillik berish, o'qish mazmunini real hayot bilan bog'lash hamda hamkorlikdagi faoliyat motivatsiyani rivojlantiruvchi komponentlar sifatida qo'llanilgan [10, 11]. Demak, pedagogning vazifasi faqat "ko'proq kitob o'qi" deyish emas, balki o'quvchiga o'qish jarayonida muvaffaqiyatni his qilish imkonini yaratishdan iborat.

Ijtimoiy-psixologik muhit va namuna mexanizmi

Kitobxonlik individual faoliyat bo'lsa-da, uning motivatsion asoslari ko'pincha ijtimoiy muhitda shakllanadi. Oila, o'qituvchi, tengdoshlar va kutubxona xodimlarining kitobga bo'lgan munosabati yoshlar uchun ijtimoiy namuna vazifasini bajaradi.

Mahalliy tadqiqotlarda, ayniqsa, oilada kitobxonlik muhitini yaratish va bolani mutolaaga jalb etishning ahamiyati ko'rsatiladi [6]. 5-7-sinf o'quvchilari bo'yicha mahalliy maqolada ham matn bilan ishlash, tahlil, taqriz, munozara, kitob tanlash va muntazam rag'batlantiruvchi strategiyalar bir butun tizimda taklif etilgan [7]. Bu jihat kitobxonlikni "yolg'iz bajariladigan vazifa" sifatida emas, balki mazmunli ijtimoiy muloqotga aylantirish zarurligini ko'rsatadi.

Metakognitiv boshqaruv va mustaqil kitobxonlik

Barqaror kitobxonlik qiziqishning mavjudligi bilangina cheklanmaydi. Shaxs o'z o'qish faoliyatini rejalashtirish, tushungan va tushunmagan jihatlarini aniqlash hamda o'qish natijasini baholashni ham bilishi kerak.

Metakognitiv strategiyalar odatda rejalashtirish, monitoring va baholash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Paris, Cross va Lipson bolalarning o'qish strategiyalari, metakognitsiyasi va motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatgan [17]. Amaliyotda bu mexanizm "Bugun nima uchun o'qiyman?", "Qaysi joyi menga tushunarsiz bo'ldi?", "Matndan qanday yangi fikr oldim?" kabi sodda reflektiv savollar, o'qish kundaligi va mazmunni qayta ifodalash orqali qo'llab-quvvatlanishi mumkin.

Kitobxonlikka qiziqishni rivojlantirishning bosqichli psixologik modeli

Ko'rib chiqilgan manbalarni umumlashtirish asosida kitobxonlik motivatsiyasini rivojlantirish jarayonini to'rt bosqichli mantiqiy ketma-ketlikda ifodalash mumkin (1-rasm).

1-rasm. Kitobxonlik motivatsiyasini rivojlantirishning bosqichli modeli



1-bosqich — qiziqishni uyg'otish. Kitob yoki matn o'quvchining mavjud qiziqishi, hayotiy tajribasi, savollari yoki emotsional ehtiyojiga bog'lanadi.

2-bosqich — qiziqishni saqlash. O'qish davomida matnning tushunarligi, muvaffaqiyat hissi, qo'llab-quvvatlovchi fikr-mulohaza va muhokama imkoniyati ta'minlanadi.

3-bosqich — o'qishning shaxsiy qiymatini shakllantirish. Shaxs kitobni baho, talab yoki sovrin uchun emas, balki bilim olish, dam olish, o'zini anglash, estetik zavq yoki shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida anglay boshlaydi.

4-bosqich — ichkilashtirish va o'zini o'zi boshqarish. Kitob tanlash, o'qish vaqtini rejalashtirish va mazmun ustida fikrlash tobora tashqi nazoratdan mustaqil faoliyatga o'tadi.

Mazkur ketma-ketlik Hidi va Rennigerning qiziqish rivojlanishi modeli, Ryan va Decining o'zini o'zi determinatsiya nazariyasi hamda o'qishga jalb etilganlik konsepsiyasi bilan mazmunan uyg'un hisoblanadi [8, 9, 12].

MUHOKAMA

Olingan nazariy natijalar kitobxonlikka qiziqishni shakllantirishda tashkiliy, pedagogik va psixologik yondashuvlarni bir-biridan ajratib bo'lmasligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, psixologik yondashuvning o'ziga xosligi shundaki, u "qancha kitob o'qildi?" degan tashqi ko'rsatkichdan ko'ra "inson nima sababdan o'qiyapti?" degan savolni markazga qo'yadi.

Xorijiy tadqiqotlar ushbu fikrni empirik jihatdan ham qo'llab-quvvatlaydi. Van der Sande va hammualliflarning 2023-yilgi meta-tahliliga 39 ta tadqiqot kiritilgan bo'lib, nazariy asoslangan o'qish motivatsiyasi intervension dasturlari o'qish motivatsiyasi va matnni tushunishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Mualliflar qiziqishni uyg'otishga qaratilgan komponentlar ayrim motivatsion va tushunish natijalari bilan bog'liqligini qayd etadi [15].

Mol va Busning 99 ta tadqiqotni qamrab olgan meta-tahlilida bo'sh vaqtda o'qish va o'qish kompetensiyasi o'rtasida rivojlanish davomida o'zaro kuchayib boruvchi bog'liqlik mavjudligi ko'rsatilgan [14]. Ya'ni yaxshi o'qiy oladigan shaxs ko'proq o'qishga moyil bo'lishi, ko'proq o'qish esa keyingi o'qish kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Bu holat kitobxonlikka qiziqtirishda ijobiy spiral yaratish muhimligini ko'rsatadi: qiziqarli va mos matn → muvaffaqiyatli o'qish tajribasi → kompetentlik hissi → kuchliroq ichki motivatsiya → ko'proq mustaqil mutolaa → yanada rivojlangan o'qish kompetensiyasi.

O'zbekiston sharoitidagi mahalliy tadqiqotlarda oila, ta'lim muassasasi, kutubxona, mutolaa tadbirlari va kitobxonlik madaniyatining pedagogik jihatlariga sezilarli e'tibor qaratilgan [6, 7]. Xorijiy psixologik modellarning kuchli tomoni esa ushbu tashqi sharoitlarning shaxsning ichki motivatsiyasiga qanday aylanishini tushuntirishidir. Shu sababli mahalliy kitobxonlik dasturlarini takomillashtirishda tashkiliy tadbirlar bilan birga avtonomiya, kompetentlik, individual qiziqish va metakognitiv refleksiyaning maqsadli shakllantirish maqsadga muvofiq.

Masalan, barcha o'quvchilarga bir xil kitobni majburiy tavsiya qilish o'rniga bir mavzu doirasida turli murakkablik va janrdagi asarlardan tanlash imkonini berish avtonomiyani qo'llab-quvvatlaydi. Faqat o'qilgan sahifalar yoki kitoblar sonini baholash o'rniga o'quvchining o'qigan matn haqidagi shaxsiy fikri, savollari va mazmunni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash qobiliyatini rag'batlantirish esa ichki ma'no hosil bo'lishiga yordam beradi.

Shuningdek, kitobxonlikni faqat musobaqaga aylantirishda ehtiyotkorlik zarur. Musobaqa va sovrinlar dastlabki faollikni kuchaytirishi mumkin, lekin yakuniy psixologik maqsad o'quvchini doimiy tashqi nazorat va mukofotga bog'lash emas, balki mutolaaning shaxsiy qiymatini anglashiga erishishdan iborat.

Mazkur tadqiqotning cheklovi shundaki, u birlamchi empirik ma'lumotlarga emas, adabiyotlarning integrativ nazariy tahliliga asoslangan. Taklif etilgan mexanizmlar va bosqichli modelni O'zbekiston sharoitida turli yosh guruhlarini kesimida eksperimental yoki longitudinal tadqiqotlar orqali tekshirish keyingi ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishi bo'lishi mumkin.

XULOSA. Kitobxonlikka qiziqish shaxsning faqat bilimga bo'lgan ehtiyoji emas, balki motivatsion, emotsional, kognitiv, ijtimoiy va metakognitiv jarayonlarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi murakkab psixologik hodisadir. Nazariy tahlil kitobxonlikka qiziqishni rivojlantirishda qiziqishni uyg'otish, avtonomiyani ta'minlash, kompetentlik hissinini mustahkamlash, ijtimoiy-emotsional qo'llab-quvvatlash va metakognitiv o'zini boshqarishni rivojlantirish eng muhim psixologik yo'nalishlar ekanligini ko'rsatdi. Barqaror kitobxonlik motivatsiyasi tashqi talab va bir martalik rag'batdan shaxsiy qiymat hamda ichki ehtiyoj tomon bosqichma-bosqich o'tish orqali shakllanadi. Shu sababli kitobxonlikni rivojlantirish dasturlarida faqat "kitob o'qitish" emas, balki o'quvchining "o'qishni xohlashi" va keyinchalik "o'qishni mustaqil boshqarishi" uchun psixologik sharoit yaratish asosiy vazifaga aylanishi lozim. Ta'lim muassasasi, oila va kutubxona faoliyatida kitob tanlash erkinligi, individual qiziqishlarni hisobga olish, muvaffaqiyat tajribasini yaratish, o'qilgan asarlar bo'yicha mazmunli muloqot, ijobiy kitobxonlik namunasi va refleksiv o'qish strategiyalarini integratsiyalash kitobxonlikka qiziqishni rivojlantirishning istiqbolli psixologik imkoniyatlari sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida*: PQ-3271-son qaror. – 2017-yil 13-sentabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. *Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o'rtasida kitob o'qishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida*: PQ-9-son qaror. – 2026-yil 15-yanvar.
3. G'oziyev E. G'. *Psixologiya*. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – 352 b.
4. Xaydarov F. I., Xalilova N. I. *Umumiy psixologiya: darslik*. – Toshkent: TDP, 2009.
5. Nishonova Z. T. *Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya*. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2018. – 600 b.
6. Saidmuratova M. B. *Bolalarda kitob o'qishga qiziqishni shakllantirishning psixologik xususiyatlari*: psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023.
7. Chiniyeva S. A. *O'zbek oilalarida kitobxonlik vositasida o'smirlar ma'naviyatini shakllantirish*: pedagogika fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 2006.
8. Eshimbetov O. Tarbiya darslarida 5–7-sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish natijadorligi // *Science and Society*. – 2025. – Vol. 4, No. 2. – B. 68–70.
9. Ryan R. M., Deci E. L. Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being // *American Psychologist*. – 2000. – Vol. 55, No. 1. – P. 68–78. – DOI: [10.1037/0003-066X.55.1.68](https://doi.org/10.1037/0003-066X.55.1.68)
10. Hidi S., Renninger K. A. The Four-Phase Model of Interest Development // *Educational Psychologist*. – 2006. – Vol. 41, No. 2. – P. 111–127. – DOI: [10.1207/s15326985ep4102_4](https://doi.org/10.1207/s15326985ep4102_4)
11. Guthrie J. T., Wigfield A. Engagement and Motivation in Reading // *Handbook of Reading Research*. Vol. III / ed. by M. L. Kamil, P. B. Mosenthal, P. D. Pearson, R. Barr. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2000. – P. 403–422.
12. Guthrie J. T., Wigfield A., VonSecker C. Effects of Integrated Instruction on Motivation and Strategy Use in Reading // *Journal of Educational Psychology*. – 2000. – Vol. 92, No. 2. – P. 331–341. – DOI: [10.1037/0022-0663.92.2.331](https://doi.org/10.1037/0022-0663.92.2.331)
13. Unrau N. J., Quirk M. Reading Motivation and Reading Engagement: Clarifying Commingled Conceptions // *Reading Psychology*. – 2014. – Vol. 35, No. 3. – P. 260–284. – DOI: [10.1080/02702711.2012.684426](https://doi.org/10.1080/02702711.2012.684426)
14. Schiefele U., Schaffner E., Möller J., Wigfield A. Dimensions of Reading Motivation and Their Relation to Reading Behavior and Competence // *Reading Research Quarterly*. – 2012. – Vol. 47, No. 4. – P. 427–463. – DOI: [10.1002/RRQ.030](https://doi.org/10.1002/RRQ.030)
15. Mol S. E., Bus A. G. To Read or Not to Read: A Meta-Analysis of Print Exposure from Infancy to Early Adulthood // *Psychological Bulletin*. – 2011. – Vol. 137, No. 2. – P. 267–296. – DOI: [10.1037/a0021890](https://doi.org/10.1037/a0021890)
16. van der Sande L., van Steensel R., Fikrat-Wevers S., Arends L. R. Effectiveness of Interventions That Foster Reading Motivation: A Meta-Analysis // *Educational Psychology Review*. – 2023. – Vol. 35. – Article 21. – DOI: [10.1007/s10648-023-09719-3](https://doi.org/10.1007/s10648-023-09719-3)
17. Wigfield A., Gladstone J. R., Turci L. Beyond Cognition: Reading Motivation and Reading Comprehension // *Child Development Perspectives*. – 2016. – Vol. 10, No. 3. – P. 190–195. – DOI: [10.1111/cdep.12184](https://doi.org/10.1111/cdep.12184)
18. Paris S. G., Cross D. R., Lipson M. Y. Children's Reading Strategies, Metacognition, and Motivation // *Developmental Review*. – 1986. – Vol. 6, No. 1. – P. 25–56. – DOI: [10.1016/0273-2297\(86\)90002-X](https://doi.org/10.1016/0273-2297(86)90002-X)